

YURTIMIZ TARIXINI XITOY MANBALARIDAGI TAHLILI

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti
402-guruh talabasi Samandarova Farangiz*

Annotatsiya: Biz bilamizki Xitoy manbalari ham Xitoy hukmdorlarining manfaatlarini o‘ylab yozilgan. Xitoy manbalarida bo‘lib o’tgan voqealarning vaqtini va o’rni, bir-biriga qarshi turgan qo’shlarning umumiyligi soni aniq ko’rsatiladi. O’zbekiston hududining uzoq o’tmishidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o’rganishda xitoy manbalarini o’rni juda kattadir. Bularidan quyidagi xitoy manbalari muhim ro’l o’ynaydi. Agar O’tmish manzarasini qayta tiklash mumkin deb o‘ylasak, ushbu manbalar bilan qisqacha tanishib o’tsak.

Kirish. O’zbekistonning uzoq o’tmishidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o’rganishda Xitoy manbalari muhim rol o’ynaydi. Ulami tahlil qilish orqali mintaqasi ahollisi hamda madaniyati to‘g’risida turli yangi, yunon va rim manbalarida uchramaydigan ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Bu ma’lumotlami qiyosiy tahlil qilish orqali mintaqasi to‘g’risida umumiyligi, xolisona va tarixiy haqiqatga yaqin o’tmish manzarasini qayta tiklash mumkin bo‘ladi. Ushbu manbalar bilan qisqacha tanishib o’tsak.

“Shi Szi” (“Tarixiy esdaliklar”)- Xitoy tarixchilarining otasi hisoblanadigan Sima Syan (tahminan mil. avv. 145 yoki 135-86-yillar)ning 130 bobdan iborat asaridir. Sima Syanning “Shi Szi” nomli asarida Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o’tgan tarixi yoritilgan. Asarda O’rta Osiyo, xususan, uning 123-bobida Farg‘ona vodiysining qadimiy xalqlari hayoti haqidagi qimmatli ma’lumotlar mavjud. Asarning to‘la matni olti jilda 1959-yili Pekinda chop etilgan. Rus tiliga I.Ya. Bichurin, L. S. Vasilev, L. S. Perelomov, Yu. L. Krol va boshqlar tomonidan tarjima qlinib, chop etilgan. E. Shavann (1865-1905) tomonidan fransuz tiliga tarjima qlinib, 1895-1918-yillari 5 jilda chop etilgan.

Ingliz tilida bajarilgan so‘nggi tadqqlar 1999-yilda G. Xardi, 2010-yilda M. Ker, 2011-yilda V. Naynxauzer va D. Knechtgez tomonidan 2014-yilda tarjima hamda tahlil qilingan.

“Tyan Xan shu” (“Avvalgi Xan sulolasining tarixi”) —yirik tarixchi olim Ban Gu (39-92-yy) asaridir. Taroxiy qo‘lyozma asarning 95-bobida O’rta Osiyo (ayniqsa, qang‘li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqlari hamda uning hayoti haqida muhim ma’lumotlarni uchratish mumkin. Manbaning so‘nggi tarjima va tahlili R. V. Vyatkin“ tomonidan rus tilida, E.Uilkinson tomonidan ingliz tilida amalga oshirildi. „Xou Xan shu“ (“Кейинги Хан сулоласи тарихи”) tarixchi Fan Xua (398-445-yy.) asari. “Xou Xan shu” Xitoyning avvalgi Xan sulolasini davridagi tarixni o‘z ichiga olgan katta asar bo‘lib, 130 ta bobdan iborat. Unda O’rta

Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung‘oriyaning 25-221-yillar oralig‘idagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar mavjud. Manbaning so‘nggi tarjima va tahlili Fuse tomonidan rus tilida, J. Chiyun tomonidan esa 2015-yilda ingliz tilida amalga oshirilgan.

“Bey uiy” asari ham bo‘lib, u 100 ta bobdan iborat asar. Tan sulolasi (618-907-yy.) davrida yashagan yirik tarixchi Li Yan Shou (taxminan 595-678- yy.) qalamiga mansub. A. Madraimovning bergen ma’lumotlariga ko‘ra, unda Shimoliy Xitoyda hukmronlik Vey (386-535-yy.), Si (550-577-yy.), Chjou (557—581-yy.) sulolasi hukmronligi, ya’ni 386-581-yillar tarixi bayon qilingan. Asarda O‘rta Osiyo, xususan, Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin. Manbaning so‘nggi tarjima va tahlili 2010-yilda L. R. Konsevich tomonidan rus va 2003-yilda A. Den tomonidan ingliz tillarida amalga oshirilgan.

“Suy shui”- Xitoy tarixchilari jamoasi tarafidan yozilgan asar. Uni yozishda Vey Chjen (580-643-yy.) - Tan sulolasi davrida yashagan tarixchi muhim rol o‘ynagan. Asarda Xitoyning Suy sulolasi davridagi, ya’ni V-VI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi 85 ta bobda bayon etilgan. Kitobning 55 bobi 637-yilda yozib tamomlangan, qolgan 30 ta bobiga esa 20 yil vaqt ketgan. A. Madrimovning fikricha, asarda imperatorning iqtisodiy siyosati, qo‘sining tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf- odatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Uning 83-bobida O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga sazovor ma’lumotlar mavjud. Manbaning so‘nngi tahriri ingliz va xitoy tillarida D. Tvtchet va V. Chonglar tomonidan hamda 2015-yillarda amalga oshirilgan. E’tiborli tomoni shundaki, Xitoy manbalarida Qang‘ Kushon va Dovon daviatlari, ularning qadimiy aholisi, mashg‘ulotlari, yuechji, sak, qang‘ hamda dovonliklar haqida ma’lumotlar uchraydi. Xususan, Xitoy manbalarida saklar “sak”, “se”, “sek”, “sai” shakllarida tilga olinib, ular Xitoyning g‘arbida yashaganligi ko‘rsatilgan. Xitoy manbalarining Toshkent haqidagi ma’lumotlari ham e’tiborlidir. Xitoy manbalarida “Choch”, “Shi” yoki “Chjeshe” nomlari bilan qayd etilgan. Xitoy manbalarining o‘ziga xos tomonlaridan yana biri shundaki, ularda Toshkent viloyati va Farg‘ona vodiysi hududidagi eng qadimgi davlatlar hamda xalqlar to‘g‘risida qimmatli ma’lumot berilgan. Shuningdek, ushbu hududlarda mavjud davlatlar, shaharlar, xalqlar, qabilalar, daryo va tog‘lar haqida qimmatli toponimik ma’lumotlar ham bor. Bundan tashqari qadimgi Davan davlat haqidagi yozma ma’lumotlar asosan Xitoy manbalarida – Chjan Syan ma’lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolasi tarixi» asarlari beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Davan» nomi ostida eslatiladi. Farg‘ona so‘zi Sug‘d manbalarida «Fragonik» shaklida yozilib «tog‘lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma’nosini bersa, Xitoy manbalaridagi Dayuan ham «tog‘lar orasidagi vodiy» ma’nosini beradi. Xitoy manbalari qadimgi Farg‘onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivolanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o’zlari uchun notanish

bo'lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma'lumot bor: «Xitoy elchisi urug keltirdi, shunda osmon farzandi Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi». Davanliklarning bog'larida uzumdan tamqari anor, o'rik va boshqa mevali daraxtlar kop bolgan. Xitoy tarixchilari bu mevalaming Xitoyda paydo bo'lishini Davan bilan bog'laydilar.

Xulosa qilib aytadigan ko'lsak, O'zbekistonning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda Xitoy manbalari muhim ro'l o'ynaydi. Ularni tahlil qilish orqali mintaqqa aholisi hamda madaniyati to'g'risida turli yangi, yunon va rim manbalarida uchramaydigan ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Bu ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali mintaqqa to'g'risida umumiy, xolisona va tarixiy haqiqatga yaqin ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi O'quv qo'llanma. Toshkent:2014. 233 b.
2. Doniyorov A.X. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi O'quv qo'llanma. 2020. 451 b.
3. Bdumajid Madraimov, Gavhar Fuzailova "Manbashunoslik" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2008.
4. B.J.Eshov, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi" I - jild Toshkent-2013
5. Nigmatov Alisher Xayrulla. "Sharq Uyg 'onishi davrida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy masalalari." Science and Education 1.5 (2020): 157-161.